



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 535 sahifa.

2025-yil, 13-oktyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA KAMBAG'ALLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhaxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамоловна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидрахаловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLIVAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	355
Yusupov Farxod Adamboyevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI	359
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	363
Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	369
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	
RAQAMLI PLATFORMALAR YORDAMIDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING QO'SHIMCHA IMKONIYATLARI TO'G'RSIDA.....	374
Nasrullayev Hikmatullo Habibulloyevich	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA "XIZMATLAR IPOTEKASI" MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI	379
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ ПРИ ВОЗДЕЛЫВАНИИ ЛУКА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ.....	384
Суюнов Шохзодбек Мурод угли	
XORIJIY DAVLATLAR SANOAT IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI (YAPONIYA, KOREYA VA GERMANIYA MISOLIDA)	389
Mansurova Sayyora Baxtiyor Kizi	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI HISOBGA OLIISHDA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH	395
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	399
Muminov Sherzod Kholmirzaevich	
DIGITALIZATION OF AGRICULTURAL PRODUCTS FOR EXPORT	404
Azimov R.B.	
AHOLI JON BOSHIGA UMUMIY DAROMADLAR HAJMINI TREND MODELLAR ASOSIDA PROGNOZLASH	409
Xolto'rayev Islom Ilhomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI BANDLIK SHAKLLARI	416
Sayipov Begzod Rahimovich	
TIJORAT BANKLARINING YANGI DAVR SHAROITIDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA INDIKATORLARI	422
Sadikov Iskandar Gayratovich	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	427
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	



MAHALLIY BUDJET SOLIQLI DAROMADLARI BAZASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQLAR TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	433
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
TOSHKENT SHAHRIDAGI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ QARZDORLIGI TAHLILI	438
Soipov Boburmirzo Nosirjon o'g'li	
РОЛЬ ЖИЛИЩНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СИСТЕМЕ КОМПЛЕКСНОГО РАЗВИТИЯ ТЕРРИТОРИЙ МЕЗОУРОВНЯ	446
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
TO'QIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA XORIJ TAJRIBALARINING ZARURLIGI	454
Abdullayev Dostonbek G'ofurjon o'g'li	
TURISTIK KLASSTERLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI	458
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RESURS TA'MINOTI BOSHQARUVINING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA MODELLARI	462
Arziqulova Oybar chin Eshquvat qizi	
XIZMATLAR SEKTORIDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR VA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI QONDIRISH MEKANIZMLARI	467
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА	472
Базаров Бердымурад Улугмуродович, Атавуллаева Саида Джумабекмуродовна	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMI	478
Ho'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING RO'LI	483
Nabiyeva Muxabbat Djabirxanovna	
"HOW GREEN INVESETMENTS CAN EFFECT ON ECONOMIC GROWTH IN DEVELOPING COUNTRIES"	485
Farangiz Ma'rufjonovna Pirmatova	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURLAR MANBALARI VA ULARNING HAJMINI OSHIRISHNING ZARURIYATI	493
Abduraxmonov Akmal Nurmat o'g'li	
GLOBAL BOSHQARUV VA BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING ROLI	498
M.Sh. Tolipov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	504
Буранбаева Шоира Рустамовна	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA PIYOZ YETISHTIRISHDA TOMCHILATIB SUG'ORISHNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	508
Suyunov Shohzodbek Murod o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARINING RIVOJLANISHIGA BOSHQARUV MADANIYATIDAN FOYDALANISHNING TA'SIRI	513
Aknazarova Zebiniso Bagdadovna	
ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZM SAMARADORLIGINI ANIQLASH USULLARI	518
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY VA TASHKILIY ASOSLARI	524
Salimov Burxon Abubakirovich	
"YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA UNDA ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	530
Berdiyeva Aziza G'anisher qizi	



“YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA UNDA ENERGIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Berdiyeva Aziza G‘anisher qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriyasi

kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy, tashkiliy va ekologik asoslari tahlil etilgan. Tadqiqotda “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasining milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va energiya samaradorligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar — Germaniya, Janubiy Koreya, Daniya va Yaponiya tajribasi asosida “yashil o‘sinh” modelining ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlari baholangan. Maqolada “P4G” (Partnering for Green Growth) tashabbusi doirasida “yashil” texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va energiya tejamkor tizimlarni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” texnologiyalar, O‘zbekistonning “yashil” strategiyasi, “yashil o‘sinh”, “yashil rivojlanish”, “P4G”, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi.

Abstract: This article analyzes the economic, organizational, and environmental foundations for the development of the “green” economy in the Republic of Uzbekistan. The study highlights the role of the “green” economy concept in modernizing the national economy, ensuring efficient resource use, environmental sustainability, and improving energy efficiency. Furthermore, the experiences of Germany, South Korea, Denmark, and Japan in implementing “green growth” models are examined to assess their applicability to Uzbekistan’s conditions. Within the framework of the “P4G” (Partnering for Green Growth) initiative, the article presents proposals and recommendations on introducing green technologies, utilizing renewable energy sources, and developing energy-efficient systems.

Key words: green economy, green technologies, Uzbekistan’s green strategy, green growth, green development, P4G, renewable energy, energy efficiency.

Аннотация: В данной статье проанализированы экономические, организационные и экологические основы развития «зелёной» экономики в Республике Узбекистан. В исследовании раскрыта роль концепции «зелёной» экономики в модернизации национальной экономики, рациональном использовании ресурсов, обеспечении экологической устойчивости и повышении энергоэффективности. Также рассмотрен опыт Германии, Южной Кореи, Дании и Японии по реализации модели «зелёного роста» и оценены возможности её адаптации к условиям Узбекистана. В рамках инициативы «P4G» (Partnering for Green Growth) в статье предложены рекомендации по внедрению «зелёных» технологий, использованию возобновляемых источников энергии и развитию энергоэффективных систем.

Ключевые слова: «зелёная» экономика, «зелёные» технологии, стратегия Узбекистана по «зелёной» экономике, «зелёный рост», «зелёное развитие», «P4G», возобновляемая энергия, энергоэффективность.

KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda deyarli barcha mamlakatlarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirgan holda iqtisodiy farovonlikni ta‘minlashga qaratilgan “yashil” iqtisodiyotga e‘tibor kuchayib bormoqda. Natijada, “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi ko‘plab davlatlar uchun strategik ustuvor yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu jarayon iqtisodiy o‘sinhning yangi modelini — ekologik mas‘uliyat, texnologik yangilanish va resurs tejamkorlik tamoyillarini o‘zida mujassam etgan barqaror rivojlanish paradigmasini yuzaga keltirdi.

O‘zbekiston uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tish masalasi hozirgi davrda nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Havo ifloslanishi, suv tanqisligi, energetik uzilishlar, Orol dengizi fojiasi va boshqa ekologik muammolar milliy barqaror rivojlanish jarayonlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mamlakat iqtisodiyotida resurslarni haddan tashqari iste‘mol qiluvchi va qazib olinadigan yoqilg‘ilarga tayanadigan eskirgan ishlab



chiqarish amaliyotlarining saqlanib qolishi nafaqat tabiiy muhit, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik uchun ham xavf tug'diradi. Shu bois ekologik xavfsizlikni ta'minlash, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish bugungi kunning muhim talabi bo'lib bormoqda.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining quvvatini 25 ming MVtga yetkazish, ularning umumiy energiya iste'molidagi ulushini 40 foizga oshirish, sanoatda “yashil sertifikatlar” bozorini shakllantirish, shuningdek “ekologik markirovkalash” tizimini joriy etish maqsad qilingan.

Mazkur strategik yo‘nalishlar samarali amalga oshirilishi uchun “yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi iqtisodiy, institutsional va ekologik omillarni ilmiy tahlil etish zarur. Shu asosda respublikada “yashil” iqtisodiyot siyosatini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan amaliy taklif va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Atrof-muhit iqtisodiyoti va ekologiya iqtisodiyotining rivojlanishi asosida ilgari surilgan tamoyillarning iqtisodiy siyosatga joriy etilishi natijasida “yashil” iqtisodiyot tushunchasi shakllana boshlagan. Ilk bor “yashil” iqtisodiyot atamasi 1989-yilda Buyuk Britaniyalik atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan “Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish rejası” deb atalgan, hukumat uchun yozilgan hisobotda qo‘llanilgan. “Yashil” iqtisodiyot — bu insoniyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘un o‘zaro ta'sirni qo‘llab-quvvatlaydigan va bir vaqtning o‘zida har ikkala ehtiyojni bir xil qondirishga harakat qiladigan, resurslardan samarali foydalanish hamda atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyot metodologiyasidir.

Aytish joizki, “yashil” iqtisodiyot tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda qo‘llanilganligiga qaramasdan, iqtisodiy adabiyotlarda uning aniq, yagona va umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Shu tufayli “yashil” iqtisodiyot tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Ayrim adabiyotlarda “yashil” iqtisodiyot tabiatga yordam beruvchi, ko'maklashuvchi va foyda keltiradigan yangi texnologiyalar hamda ekotizimlar sifatida o'rganiladi. Boshqa tadqiqotlarda esa u mamlakat tabiiy muhitini yaxshilashga yordam beruvchi iqtisodiyotning yangi tarmog'i sifatida tadqiq qilinadi.

Shuningdek, uchinchi guruh iqtisodchi tadqiqotchilar “yashil” iqtisodiyotni ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichi deb hisoblab, uning asosini sof va “yashil” texnologiyalar tashkil etishini ta'kidlaydilar. “Yashil” iqtisodiyot tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan. Unda “yashil” iqtisodiyot — bu insonlar farovonligi va ijtimoiy tenglikning yaxshilanishiga, ekologik risklar hamda ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytirishga olib keladigan iqtisodiyotdir, deb keltirilgan.

O‘zbekistonlik olim, iqtisodiyot fanlari doktori, professor M. Pardayevning fikricha, “yashil” iqtisodiyot — bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning bosh maqsadi sayyoramiz ekologiyasini saqlab qolgan holda iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ya'ni “yashil” iqtisodiyot deganda inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolgan holda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi. Olimning fikricha, aholi turmush darajasini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda, ekologiya va atrof-muhitga ziyon yetkazmasdan ko'paytirib borish lozim. Shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish, jamoat transportini elektr energiyasi bilan harakatlanadigan turlarga almashtirish hamda energiyani tejaydigan binolarni barpo etish kabi yo'nalishlarda ish olib borish zarur.

“Yashil” iqtisodiyot tushunchasining mohiyatini yoritishda umumqabul qilingan yondashuvlarning mavjud emasligi ushbu konsepsiyaning hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Bu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlariga, “yashil” iqtisodiyot nazariyasiga, tamoyillariga yoki “yashil” iqtisodiyot siyosatiga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin. “Yashil” iqtisodiyot tarafdorlari amaldagi iqtisodiy tizim aholi turmush darajasini yaxshilashda ijobiy natijalar berganini tan olgan holda, uni mukammal deb hisoblamaydilar.

Ekologiyaning buzilishi, tabiiy kapitalning cheklanganligi va kamayib borayotgani, kambag'allik darajasining ortib borishi, oziq-ovqat, ichimlik suvi va energiya yetishmovchiligi, shuningdek, insonlar va mamlakatlar o'rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning nomukammalligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi holatlarga ko'ra, amaldagi iqtisodiy model “jigarrang iqtisodiyot” deb ataladi. UNEP tomonidan 2008-yilda “yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tashabbusi” ilgari surilgan. BMT Yevropa iqtisodiyot qo'mitasi mutaxassislarning fikricha, “yashil” iqtisodiyotga o'tishdan asosiy maqsad iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalariga “yashil investitsiyalar”ni jalb etishni rag'batlantirishdir. Ushbu investitsiyalar muhim iqtisodiy resurslar — tabiiy kapital va ekotizimlardan samarali foydalanishni ta'minlaydi, ularning tugab qolish yoki degradatsiyaga uchrash xavfi mavjud bo'lganda esa muqobil resurslar bilan almashtirish imkonini beradi.



Bunday investitsiyalar bir vaqtning o'zida ijtimoiy adolatni ta'minlashi va fuqarolar uchun munosib ish o'rinlari yaratishi lozim. Atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish, ijtimoiy integratsiyani chuqurlashtirish va iqtisodiy rivojlanishni yaxshilash "yashil iqtisodiyot"ning asosiy vazifalarini tashkil etadi.¹

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Yashil o'sish" va global maqsadlar uchun hamkorlik (P4G) yaqin yillar ichida ilgari surilgan yirik xalqaro tashabbus hisoblanadi. Uni "yashil rivojlanish" yo'lini tanlagan mamlakatlar va shaharlarning o'ziga xos klubi deb atash ham mumkin. Hozirda ushbu loyihaning o'ndan ortiq a'zosi mavjud. Mazkur platforma doirasida ishtirokchilar "yashil iqtisodiyot"ga o'tishga yordam beradigan innovatsion yechimlar yaratish borasida o'zaro hamkorlik qilmoqdalar.

"P4G" institutsionallashtirilgan tuzilma bo'lib, bir qator nufuzli xalqaro birlashmalar va moliyaviy institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Uning yordamida O'zbekiston "yashil iqtisodiyot strategiyasi"ni amalga oshirish uchun zarur investitsiyalarni jalb qilishi mumkin. "Yashil" iqtisodiyot, avvalo, oddiy xalqning manfaatlari va istiqboliga xizmat qilishi kerak. "P4G" yo'nalishidagi sheriklikka qo'shilishimiz pirovard natijada o'zbekistonliklar turmush tarzining yaxshilanishi, hayot sifatining oshishi, shaharlarning yashash uchun qulaylashuvi, mintaqamizda ekologik muvozanatning tiklanishi va boshqa ko'plab ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

"Yashil rivojlanish"ga o'tish O'zbekistonning investitsion jozibadorligini ham oshiradi. Hozirgi vaqtda bu harakat butun dunyoda trendga aylangan. Yirik kompaniyalar va transmilliy korporatsiyalar o'z faoliyatida "yashil rivojlanish" tamoyillarini tatbiq etmoqda. Ular korporativ imijini saqlab qolish uchun atayin Barqaror rivojlanish maqsadlariga sodiqligini namoyon etmoqda. O'z navbatida, "yashil o'sish" yo'lini tanlagan mamlakatlar ham xalqaro tashkilotlar hamda biznes doiralarining e'tiborini tortmoqda. Tashqi kreditorlar va investorlar ushbu davlatlarga sarmoya kiritishni ma'qul ko'rmoqdalar. O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tayotgani dunyo hamjamiyati uchun muhim signaldir. "Yashil taraqqiyot" borasidagi maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishga qaratilgan muhim sarmoyaviy loyihalarni yirik donor tashkilotlar, xususan, G'arb kompaniyalari moliyalashtirish istagini bildirishlari muqarrar, deb o'ylaymiz.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri — energiya samaradorligi hisoblanadi. Bugungi kunda energiya tejamkorligini oshirish, ekologik toza, noan'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish yer osti boyliklari zahiralari tejash bilan birga, ekologiyaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini kamaytirish imkonini beradi. Shu bois butun dunyoda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida muqobil energiya manbalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Yuqoridagi omillarni inobatga olgan holda, so'nggi yillarda mamlakatimiz sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyot tizimini joriy etish, ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, innovatsion taraqqiyotni jadallashtirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo'nalishida davlat siyosati izchil davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi ***O'zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida***gi qarori hamda energetika sohasidagi qator investitsion loyihalar bo'yicha qabul qilingan hujjatlar asosida so'nggi yillarda energetika tarmog'ida ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda.

O'zbekistonning o'ziga xos geografik va iqtisodiy sharoitlari "yashil" energiya texnologiyalarini joriy etishda katta imkoniyatlar yaratadi. Mamlakat quyosh nuri va shamol energiyasi salohiyati jihatidan Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinda turadi. Xususan, Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi quyosh energiyasi resurslari, shuningdek, shimoliy va sharqiy hududlardagi shamol energiyasi imkoniyatlari O'zbekistonning yashil energiya tizimiga o'tishini tezlashtirishi mumkin.

2030-yilgacha iqlim o'zgarishini yumshatish va unga moslashish bo'yicha quyidagi maqsadlar belgilab berilgan:

YalM birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini 2021-yilga nisbatan 30 foizga kamaytirish;

Sanoatda elektr energiyasi iste'moli ulushini umumiy iste'mol hajmida 20 foizgacha tushirish;

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi ulushini 30,5 foizga yetkazish;

¹ World Economic and Social Survey 2011: The Great Green Technological Transformation / Department of Economic and Social Affairs of the United Nations Secretariat (DESA). - New York: United Nations, 2011. - E/2011/50/Rev. ST/ESA/333.



“Yashil makon” loyihasi doirasida shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizga kengaytirish;

1,5 Gvt quvvatga ega kichik quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish;

Yaxshilangan ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega aholining ulushini 90 foizga yetkazish;

Oʻrmon fondi hududlaridagi daraxt va butalar zaxirasini 92,3 mln m³ ga yetkazish;

Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish.

Davlat tomonidan ishlab chiqilgan “Yashil energiya strategiyasi” doirasida soliq imtiyozlari, yashil texnologiyalarni joriy etish uchun investitsion ragʻbatlantirish mexanizmlari va xalqaro moliyaviy hamkorlikni kengaytirish choralari belgilangan. Ushbu yoʻnalishlar Oʻzbekistonni Markaziy Osiyoda yashil energiya rivojlanishining yetakchi markazlaridan biriga aylantirish imkonini beradi.

Yashil energiya tizimlarining rivojlanishi oʻz navbatida ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, resurslardan tejamkor foydalanish hamda iqtisodiy oʻsishni barqarorlashtirishda muhim rol oʻynaydi.

Oʻzbekiston energetika tizimi asosan tabiiy gazga asoslangan. 2025-yilgi statistik maʼlumotlarga koʻra, umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarishining 85 foizdan ortigʻi issiqlik elektr stansiyalarida amalga oshiriladi. Bu esa uglerod chiqindilarining ortishiga, ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Ayni paytda mamlakatning energiya ishlab chiqarish jarayonlari (koʻmir, gaz va neft tarmoqlari) orqali atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari miqdori sezilarli darajada yuqori boʻlib, bu holat ekologik barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda.

Shu sababli “yashil energiya” texnologiyalarini jadal joriy etish, qayta tiklanuvchi manbalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng tatbiq etish va energiya samaradorligini oshirish Oʻzbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida eng muhim yoʻnalishlardan biri boʻlib qolmoqda.

energetika sohasida quyidagi islohotlarni amalga oshirish zarur:

1. Energiya manbalarining diversifikatsiyasi.

Quyosh, shamol, bioenergiya va gidroenergiya kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kuchaytirish lozim. Oʻzbekistonning geografik holati va tabiiy resurslari ushbu imkoniyatni keng miqyosda qoʻllashga zamin yaratadi. Masalan, Buxoro va Navoiy viloyatlarida yil davomida quyosh nuri yuqori boʻlgani sababli, bu hududlarda quyosh energetikasini rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Shu bilan birga, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Jizzax viloyatlarida shamol energiyasi resurslari yuqori boʻlib, ular elektr ishlab chiqarishning muqobil manbai sifatida foydalanilishi mumkin.

2. Texnologik modernizatsiya.

Energiya ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash tizimlarida samaradorlikni oshiruvchi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish dolzarbdır. Hozirda energetika inshootlarining katta qismi eskirgan boʻlib, ularning samaradorligi past darajada. Energiya uzatish tarmoqlarida yoʻqotishlar yuqori, bu esa ishlab chiqarilgan energianing muayyan qismini samarasiz yoʻqotilishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ishlab chiqarish va uzatish tizimlarida “aqlli tarmoqlar” (smart grids), raqamli monitoring va avtomatik boshqaruv texnologiyalarini joriy etish zarur.

3. Uglerod neytralligi (carbon-neutral).

2050-yilgacha Oʻzbekiston iqtisodiyotini uglerod neytral holatga keltirish boʻyicha konsepsiya ishlab chiqilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun barcha iqtisodiyot tarmoqlarida — transport, sanoat, qishloq xoʻjaligi va energetikada — uglerod chiqindilarini kamaytirish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish talab etiladi. Hukumat va xususiy sektor tomonidan keng miqyosda investitsiyalarni jalb qilish, “yashil obligatsiyalar” (green bonds) bozorini rivojlantirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Yashil energiya taraqqiyotiga toʻsiq boʻlayotgan asosiy muammolar

1. Moliyaviy resurslar yetishmasligi.

Yashil texnologiyalarni joriy etish katta boshlangʻich sarmoyani talab etadi. Shu bois, davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va soliq yengilliklarini oʻz ichiga olgan moliyaviy ragʻbatlantirish tizimini yaratish zarur.

2. Texnologik infratuzilmaning eskirganligi.

Energetika tarmogʻining koʻplab obʼektlari hali ham sovet davridan qolgan uskunalarda ishlamoqda. Bu yangi texnologiyalarni integratsiya qilishni qiyinlashtiradi va energiya samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, mavjud tizimlarni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish talab etiladi.

3. Kadrlar salohiyatining pastligi.

Yashil texnologiyalarni boshqarish, xizmat koʻrsatish va texnik qoʻllab-quvvatlash sohasida malakali mutaxassislar yetishmaydi. Kasbiy taʼlim tizimida “yashil energetika muhandisligi”, “qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari” kabi yoʻnalishlarni kengaytirish zarur.



4. Qonunchilik bazasining zaifligi.

Energetika va ekologiya sohaslarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza hali to'liq shakllanmagan. "Yashil energiya to'g'risida"gi qonunni qabul qilish, ekologik standartlarni ishlab chiqish va xalqaro me'yorlarga mos monitoring tizimini yo'lga qo'yish muhim.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yashil energetika sohasida qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda:

Navoiy viloyatida 100 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi;

Samarqand va Jizzax viloyatlarida 500 MVt dan ortiq quvvatdagi quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilmoqda;

Qoraqalpog'iston Respublikasida 200 MVt shamol elektr stansiyasi loyihasi amalga oshirilmoqda;

Energetika vazirligi huzurida "Yashil energiya" bo'limlari tashkil etilib, ular yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash strategiyalarini ishlab chiqmoqda.

Bundan tashqari, aholining va korxonalarning qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishini rag'batlantirish mexanizmlari yo'lga qo'yilmoqda. Xususan, quyosh panellari o'rnatgan fuqarolar uchun soliq imtiyozlari va kompensatsion to'lovlar joriy etilmoqda.

Natijada, mamlakatda energiya iste'molining ekologik jihatdan toza, iqtisodiy jihatdan tejamkor va barqaror shaklini ta'minlash uchun mustahkam asos yaratilmoqda. Yashil energetika tizimi O'zbekistonning "Raqamli iqtisodiyot – 2030" va "Yashil o'sish strategiyasi – 2030" maqsadlariga erishishda asosiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yashil energiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni beramiz:

Yashil energiyaga sarmoya jalb qilishni soddalashtirish.

Soliq imtiyozlari, grantlar va davlat kafolatlari orqali investorlar uchun qulay muhit yaratish zarur. Yashil energiya sohasiga sarmoya kiritish uchun davlat tomonidan qulay shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish.

"Aqlli elektr tarmoqlari" tizimi orqali elektr taqsimotini samarali boshqarish zarur. Ushbu tizim yordamida energiya taqsimotini optimallashtirish va yo'qotishlarni kamaytirish mumkin.

Yashil energetika universitetlarini ochish.

Kasbiy ta'lim tizimiga yashil texnologiyalar bo'yicha yangi yo'nalishlar qo'shish zarur. Yashil energiya sohasida mutaxassislar tayyorlash uchun maxsus universitetlar yoki ilmiy markazlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Uglerod emissiyalarini cheklovchi mexanizmlarni ishlab chiqish.

"Uglerod soliqlari" va "emissiya kvotalari" tizimini bosqichma-bosqich joriy etish lozim. Bu mexanizmlar orqali uglerod chiqindilarini kamaytirish va yashil energiyaga o'tish jarayonini tezlashtirish mumkin.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Quyosh panellari, shamol turbinalari va boshqa jihozlarni mahalliy ishlab chiqarishga subsidiyalar ajratish kerak. Bu mamlakatda yashil texnologiyalarning rivojlanishini tezlashtiradi va importga qaramlikni kamaytiradi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda energetika tarmog'i asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Energiya ishlab chiqarishning ekologik jihatdan barqaror va samarali texnologiyalarini joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik xavfsizlikni ham ta'minlaydi. O'zbekiston yashil energiyaga o'tish jarayonida xalqaro tajribani o'zlashtirib, uni mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda mustahkam asos yaratishi mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik xavfsizlik va sog'lom jamiyat barpo etish uchun zamin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. М.И. Юлдашев, А.Н. Хамдамов, Ф.А. Юлдашев, Ш.И. Курбонов. «Яшил иқтисодиёт». Илмий монография – Т.: "Fan ziyosi" nashriёти, 2024 й. 232-бет.
2. Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barvier. Earthscan, London, Great Britain, 1989.192 rr.
3. Навстречу "зеленой" экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011. С. 17.
4. Towards a green economy in Europe. EU environmental policy targets and objectives 2010-2050. European Environment Agency, Copenhagen, 2013. URL: <http://www.eea.europa.eu/publications/towards-a-green-economy-in-europe>
5. World Economic and Social Survey 2011: The Great Green Technological Transformation / Department of Economic and Social Affairs of the United Nations Secretariat (DESA). - New York: United Nations, 2011. - E/2011/50/Rev. ST/ESA/333.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
